STEM ta'limi va sun'iy intellekt: Qoraqalpog'iston maktablari uchun integratsiya hamda amaliy bo'lim	586
Jumamuratov Perdebay Tileubayevich	
Интерактивный метод как средство активизации всех учащихся на уроках родного языка	589
Тажбенова Дина Куанышовна	
Эффективность цифровых технологий в системе образования Узбекистана.....	591
Усмонова Фируза Муродовна	
Raqamli ta'lim muhitida bo'lajak o'qituvchilarda jamoada ishlash ko'nikmalarini rivojlantirish metodikasi ...	595
Yo'ldosheva Mohidil Sobirjon qizi	
Maktabgacha ta'lim yo'nalishi talabalarining kasbiy kompetensiyasini innovatsion yondashuv asosida rivojlantirishning pedagogik zarurati	599
Qurbonova Muxayyo Oltiboyevna	
Mahmudxo'ja Behbudiy merosi, jadid maktablarining g'oyaviy asoslari va ta'limdagi modernizatsiya yo'nalishlari	602
Mirzoyeva Nigora Shavkatjonovna, Abdisamatov Ozodbek	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda nutq rivojlanishini takomillashtirish metodlari.....	605
Nishonova Ra'noxon Abdullojon qizi	
Borrowed Proper Nouns in English and Uzbek: a Comparative Analysis.....	608
Amirqulova Feruza Abdurashidovna	

Ingliz tilini o'qitishda autentik videolarning amaliy samaradorligi.....	613
Dusmurodova Iroda Quvonovna	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlari samaradorligini ta'minlashda direktor va pedagog xodimlarning hamkorlikdagi faoliyati.....	616
Olimjonova Odina Hasanxon qizi	
Boshqaruv psixologiyasi terminlarini tarjima qilish muammolari va ularni hal qilish yo'llari.....	620
Dilafruz Norboyeva	
"Kommunikativ kompetensiya" tushunchasining xorijiy va milliy manbalarda talqini: qiyosiy tahlil.....	624
G'ulomova Begoyim Elmurol qizi	
Ijtimoiy tarmoqlardagi jinsiy jinoyatlarning psixolingvistik tomonlari	627
Rahimqulova Lobar Hamro qizi	
К вопросу обучения местоимению в корейском языке	631
Муҳиддинова Малика Батировна	
The Importance and its Development Models of Critical Thinking	634
Khasanova Shokhista Mirzaakhmad kizi	
Gipertoniya kasalligining rivojlanishida sotsio-emotsional intellektning ta'siri	639
Alimirzayev Nodirbek Avazbek o'g'li	
Integratsiyalashgan va interaktiv yondashuvlar orqali o'qish tushunishini o'rgatish.....	643
Aliqulova Mohinur	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida direktorlarning shaxsiy kasbiy fazilatlarini shakllantirish.....	647
Choriyeva Durdona Anvarovna, Ravshanova Noila	
Didactic Potential of Innovative Methods in Teaching Biophysics Module	652
Choriyeva Mahfuza Sadriddinovna	
Notiqlik mahoratini rivojlantirishning tarixiy pedagogik ildizlari	657
Ismoilov Usmonjon Baxramjon o'g'li	
Kartografiya darslarini zamonaviy ta'lim texnologiyalari bilan boyitish yo'llari	660
Jololdinov Asror Toshtemirovich	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarining kichik guruh tarbiyalanuvchilariga yo'l harakati turlari bo'yicha xavfsizlik talablarini o'rgatish.....	664
Jumayev Yunus Rashidovich	
Texnika yo'nalishidagi talabalarini ingliz tilini multimedia asosida o'qitishda o'quv modullarini loyihalash ...	670
Maxmudova Shaxnozaxon Odiljon qizi	
Bo'lajak o'qituvchilarni sun'iy intellekt vositalaridan foydalanish jarayonida tanqidiy fikrlashga o'rgatish	674
Mirzayev Akramjon O'ktamjonovich, Sobirova Munavvarxon Qaxramonjonovna	
Tajovvuz emotsiyasini tafsiflovchi fe'llar	677
Normaxmatova Feruza Ruziboyevna	
O'z-o'zini nazorat qilish ko'nikmalarini rivojlantirishda interfaol metodlardan foydalanish usullari	681
Otegenov Berdibay Menglibaevich	
Texnika yo'nalishi talabalarining kasbiy kompetensiyalarini avtomatlashtirilgan loyihalash tizimlari asosida rivojlantirish muammolari	684
Pozilova Shaxnoza Xaydaraliyevna, Xolmirzayeva Gulchehra Tulanovna	
Faoliyatli yondashuvning nazariy asoslari: talabalar nutqiy kompetensiyalarini rivojlantirishda zamonaviy metodologik tamoyillar.....	689
Qurbonova Gulmira Alisher qizi	
Maktab o'quvchilarida xalqaro baholash dastur talablari asosida hayotiy ko'nikmalarni shakllantirishning nazariy asoslari	693
Radjapov Ruslanbek Sarsenovich	
Raqamli ta'lim texnologiyalari yordamida bo'lajak fizika o'qituvchilarining ijodiy-intellektual kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasi.....	697
Shoyzakova Hilola Yusuf qizi	
Talabalar ehtiyojlari va qobiliyatlari asosida oliy ta'limda differensial yondashuvni amalga oshirish strategiyalari	701
Sultonova Farangiz Alisherovna	
Maktabgacha yoshdagi bolalarning ma'naviyatini oshirishda kitobxonlikni keng targ'ib qilish	706
Usmanova Maxfuza	
Talabalarda axloqiy qadriyatlarni singdirishning pedagogik asoslari	709
Xolov Olimjon Chorshamiyevich	



Iqtidorli o'quvchilar bilan ishlashda tafakkurni rivojlantiruvchi o'yinlardan foydalanish metodikasi.....	712
Ziyomiddinova Nilufar Avazbekovna	
Влияние социальных сетей на формирование мировоззрения учащихся младшего подросткового возраста.....	716
Ибрагимова З. И.	
Bo'lajak muhandislarni kasbiy rivojlantirish metodikasi	720
Axmedov Juraboy Raxmonberdiyevich	
Oliy ta'lim talabalarida ma'naviy-axloqiy madaniyat samaradorligini oshirishda jadid pedagogik merosining o'рни	725
Raxmatova Dilbar Anvar qizi	



FAOLIYATLI YONDASHUVNING NAZARIY ASOSLARI: TALABALAR NUTQIY KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHDA ZAMONAVIY METODOLOGIK TAMOYILLAR

UDK 378.180.6:372.6(021)

Qurbonova Gulmira Alisher qizi
QarDU 1-kurs tayanch doktoranti

ORCID: 0009-0003-4973-0311

Annotatsiya: Ushbu maqolada faoliyatli yondashuvning pedagogik-psixologik asoslari hamda uning talabalar nutqiy kompetensiyalarini rivojlantirishdagi o'rni tahlil qilingan. Tadqiqotda adabiyotlar tahlili metodidan foydalanilgan holda faoliyatli yondashuvning nazariy tamoyillari, nutqiy faoliyat konsepsiyasi va zamonaviy metodologik yondashuvlar o'rganilgan. Natijalar shuni ko'rsatadiki, faoliyatli yondashuv talabalarning lingvistik salohiyatini rivojlantirish uchun samarali metodologik asos yaratadi hamda kommunikativ kompetensiyalarni shakllantirish jarayonini tizimli tashkil etishga imkon beradi.

Kalit so'zlar: faoliyatli yondashuv, nutqiy kompetensiya, lingvodidaktika, metodologik tamoyillar, kommunikativ faoliyat.

Abstract: This article examines the pedagogical and psychological foundations of the activity approach and its role in the development of students' speech competencies. Using the method of literature analysis, the study explores the theoretical principles of the activity approach, the concept of speech activity, and modern methodological perspectives. The findings indicate that the activity approach provides an effective methodological basis for enhancing students' linguistic potential and enables the systematic organization of communicative competence formation.

Key words: activity approach, speech competence, linguodidactics, methodological principles, communicative activity.

Аннотация: В статье анализируются педагогико-психологические основы деятельностного подхода и его роль в развитии речевых компетенций учащихся. В исследовании с использованием метода анализа литературы рассматриваются теоретические принципы деятельностного подхода, концепция речевой деятельности и современные методологические подходы. Результаты показывают, что деятельностный подход обеспечивает эффективную методологическую основу для развития лингвистического потенциала учащихся и позволяет системно организовать процесс формирования коммуникативных компетенций.

Ключевые слова: деятельностный подход, речевая компетенция, лингводидактика, методологические принципы, коммуникативная деятельность.

KIRISH

Zamonaviy ta'lim tizimining asosiy vazifalaridan biri talabalarning nutqiy kompetensiyalarini rivojlantirish bo'lib, bu jarayon yangi metodologik yondashuvlarni talab etadi. XXI asrda ta'lim sohasidagi paradigmalar o'zgarishlar nafaqat bilim berish, balki faol shaxsni shakllantirish masalasini birinchi o'ringa qo'yimoqda. Ushbu kontekstda faoliyatli yondashuv (activity approach) alohida ahamiyat kasb etadi, chunki u ta'lim jarayonini talabalar faol ishtirokiga asoslangan holda tashkil etishni nazarda tutadi ^[1].

Nutqiy kompetensiya talabaning til vositasida o'z fikrlarini aniq, ravshan va ta'sirli ifodalay olish qobiliyatini anglatadi. Bu kompetensiyaning rivojlanishi nafaqat til bilimi, balki kommunikativ ko'nikmalar, pragmatik xabar-dorlik va sotsiolingvistik ongni ham o'z ichiga oladi. Faoliyatli yondashuvning nazariy asoslari L. S. Vygotskiy, A. N. Leontyev, P. Ya. Galperin kabi olimlarning ishlarida yaratilgan bo'lib, ularning g'oyalari nutq ta'limi sohasida keng qo'llanilmoqda ^[2].



Hozirgi vaqtda tillarni o'qitishda kommunikativ yondashuv ustunlik qilgan bo'lsa-da, faoliyatli yondashuvning integratsiyasi yanada samarali natijalarga olib kelishi mumkin. Bu yondashuvning asosiy tamoyillari talabning nutqiy faoliyatini rag'batlantirish, real kommunikativ vaziyatlar yaratish va til o'rganish jarayonini ijodiy faoliyat bilan bog'lashni nazarda tutadi. Shu bilan birga, faoliyatli yondashuvning nazariy asoslarini chuqur tahlil qilish va uni nutqiy kompetensiyalarni rivojlantirishga qo'llash masalalari hali ham to'liq o'rganilmagan ^[3].

Tadqiqotning maqsadi faoliyatli yondashuvning nazariy asoslarini tahlil qilish va uning talabalar nutqiy kompetensiyalarini rivojlantirishdagi imkoniyatlarini aniqlashdan iborat. Ushbu maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar qo'yilgan: faoliyatli yondashuvning pedagogik-psixologik asoslarini o'rganish, nutqiy faoliyat nazariyasining asosiy tamoyillarini tahlil qilish, zamonaviy metodologik yondashuvlarni umimlashtirish va ularning amaliy qo'llanish imkoniyatlarini baholash.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Ushbu tadqiqot adabiyotlar tahlili metodiga asoslanadi va quyidagi yondashuvlarni qamrab oladi: nazariy-metodologik tahlil, taqqoslash va umimlashtirish metodlari. Faoliyatli yondashuvning nazariy asoslari birinchi navbatda sovet psixologiya maktabida yaratilgan. L. S. Vygotskiy tomonidan ishlab chiqilgan "yaqin rivojlanish zonasi" konsepsiyasi faoliyatli yondashuvning asosiy tamoyillaridan biridir. Uning fikricha, bolaning rivojlanishi kattalar yoki ko'proq bilimli tengdoshlar bilan hamkorlikda sodir bo'ladi ^[4]. Bu g'oya nutq ta'limi sohasida juda muhim ahamiyatga ega, chunki nutqiy kompetensiyalar ham ijtimoiy muhitda, kommunikativ faoliyat jarayonida shakllanadi.

A. N. Leontyevning faoliyat nazariyasi faoliyatli yondashuvning metodologik asosini tashkil etadi. Uning konsepsiyasiga ko'ra, inson psixikasi faoliyat jarayonida, haqiqiy dunyoga ta'sir ko'rsatish orqali rivojlanadi. Leontyev faoliyatni motivlar, maqsadlar va amallar ierarxiyasi sifatida ko'radi ^[5]. Nutqiy faoliyat kontekstida bu degani, talabning til o'rganishga bo'lgan ichki motivatsiyasi, aniq maqsadlari va ularni amalga oshirish usullari bir-biri bilan chambarchas bog'liq bo'lishi kerakligini bildiradi.

P. Ya. Galperinning bosqichma-bosqich aqliy harakatlarni shakllantirish nazariyasi nutq ta'limida amaliy qo'llanish topgan. Uning yondashuviga ko'ra, har qanday aqliy harakat avval tashqi, moddiy shaklda amalga oshiriladi, so'ngra bosqichma-bosqich ichki, aqliy shaklga o'tadi ^[6]. Bu tamoyil nutqiy ko'nikmalarni rivojlantirishda juda muhimdir, chunki nutq ham avval og'zaki, tashqi shaklda, keyin esa ichki nutq sifatida rivojlanadi.

Zamonaviy tadqiqotlarda faoliyatli yondashuv kommunikativ-faoliyatli yondashuv nomi bilan keng tarqalgan. E. I. Passov va boshqa olimlar bu yondashuvni til o'qitishda qo'llab, uning samaradorligini isbotlaganlar. Ularning fikricha, til o'rganish jarayoni haqiqiy kommunikativ faoliyat sharoitida, asl muloqot vaziyatlarida amalga oshirilishi kerak ^[7].

Nutqiy faoliyat nazariyasi A. A. Leontyev tomonidan ishlab chiqilib, keyinchalik I. A. Zimnyaya va boshqa olimlar tomonidan rivojlantirilgan. Ushbu nazariyaga ko'ra, nutq alohida faoliyat turi sifatida emas, balki boshqa faoliyat turlariga xizmat ko'rsatuvchi vosita sifatida qaraladi. Nutqiy faoliyat o'zida to'rt asosiy turni birlashtiradi: eshitib tushunish, gapirish, o'qish va yozish ^[8]. Har bir tur o'ziga xos psixologik mexanizmlarga ega bo'lib, ularning rivojlanishi maxsus metodika talab etadi.

Xorij tillarda nutq ta'limi sohasida ham faoliyatli yondashuv keng qo'llanilmoqda. Task-based language teaching (vazifaga asoslangan til o'qitish) metodikasi ham faoliyatli yondashuvning bir ko'rinishi hisoblanadi. Ushbu yondashuvda talabalar til vositalarini o'rganish uchun emas, balki aniq vazifalarni bajarish uchun ishlatiladi ^[9].

Rus tilshunosligi sohasida V. G. Kostomarov, O. D. Mitrofanova va boshqa olimlar faoliyatli yondashuvni lingvodidaktika sohasiga muvaffaqiyatli tatbiq etganlar. Ularning ishlarida nutqiy faoliyatning psixolingvistik asoslari, kommunikativ kompetensiyaning tuzilishi va uni rivojlantirish usullari batafsil tahlil qilingan ^[10].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot metodologiyasi adabiyotlar tahlili, taqqoslash va umimlashtirish metodlariga asoslanadi. Ma'lumotlar asosan faoliyatli yondashuv, nutqiy kompetensiya va lingvodidaktikaga oid mavjud ilmiy adabiyotlardan, klassik psixologlar hamda zamonaviy metodologlarning ilmiy ishlanmalaridan olindi. Ushbu manbalar tizimli ravishda o'rganilib, asosiy g'oyalar nazariy-metodologik yondashuvlar nuqtayi nazaridan tahlil qilindi. Olingan ma'lumotlar o'zaro taqqoslanib, umumiy xulosalar chiqarildi va tadqiqotning ilmiy asoslari aniqlab berildi. Shu tariqa, metodologik yondashuv tadqiqotning asosiy yo'nalishini belgilash, mavjud ilmiy qarashlarni tahlil qilish va ularni nutqiy kompetensiyalarni rivojlantirish jarayoniga tatbiq etish imkonini berdi.



TAHLIL VA NATIJALAR

Adabiyotlar tahliliga asoslanib, faoliyatli yondashuvning asosiy tamoyillarini va ularning nutqiy kompetensiyalarni rivojlantirishdagi o'rnini quyidagi jadval orqali umumlashtirish mumkin:

1-jadval: Faoliyatli yondashuvning asosiy tamoyillari va ularning nutqiy kompetensiyalarga ta'siri

Tamoyil	Mazmuni	Nutqiy kompetensiyalarga ta'siri
Faollik tamoyili	Talabani ta'lim jarayonida faol ishtirok etishi	Nutqiy faoliyatning barcha turlarida mustaqillik rivojlanadi
Motivatsion tamoyil	Ichki motivatsiyani rag'batlantirish	Til o'rganishga bo'lgan qiziqish va ishtiyoq oshadi
Kommunikativlik tamoyili	Real muloqot vaziyatlarida til o'rganish	Pragmatik kompetensiya va sotsiolingvistik ko'nikmalar rivojlanadi
Shaxsiy yondashuv	Har bir talabani individual xususiyatlarini hisobga olish	Nutqiy uslub va individual ifodalash qobiliyati rivojlanadi
Ijodkorlik tamoyili	Ijodiy faoliyat orqali til o'rganish	Nutqiy ijodkorlik va til vositalaridan ijodiy foydalanish rivojlanadi

Tadqiqot natijalariga ko'ra, faoliyatli yondashuv nutqiy kompetensiyalarning rivojlanishiga ko'p qirrali ta'sir ko'rsatadi. Birinchidan, bu yondashuv talabalarning nutqiy faoliyatga bo'lgan motivatsiyasini sezilarli darajada oshiradi. An'anaviy yondashuvda talabalar asosan passiv qabul qiluvchi rolda bo'lsa, faoliyatli yondashuvda ular nutqiy jarayonning faol ishtirokchisiga aylanadi. Bu o'zgarish nafaqat til o'rganish samaradorligini oshiradi, balki talabalarning nutqqa bo'lgan munosabatini ham ijobiy yo'nalishda o'zgartiradi.

Ikkinchidan, faoliyatli yondashuv nutqiy kompetensiyaning barcha komponentlarini bir vaqtda rivojlantirish imkonini beradi. Til bilimi (lingvistik kompetensiya), nutqiy ko'nikmalar (nutqiy kompetensiya), sotsiokulturaviy xabardorlik (sotsiokulturaviy kompetensiya) va strategik ko'nikmalar (strategik kompetensiya) o'zaro bog'liq holda rivojlanadi. Bu holistik yondashuv an'anaviy metodikadan farqli ravishda, nutqiy kompetensiyaning fragmentar rivojlanish muammosini hal etadi.

Uchinchidan, faoliyatli yondashuv talabalarning metakognitivlik darajasini oshiradi. Ya'ni, ular nafaqat tilni o'rganadilar, balki qanday o'rganayotganlarini ham anglashadi. Bu ong nutqiy faoliyatni mustaqil ravishda boshqarish va o'z-o'zini nazorat qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi.

2-jadval: Faoliyatli yondashuvning afzalliklari va cheklovlari

Jihatlar	Afzalliklari	Cheklovlari
Motivatsion	Ichki motivatsiyani rag'batlantiradi, til o'rganishga qiziqish uyg'otadi	Ba'zi talabalar faoliyatdan qochish tendensiyasiga ega
Kognitiv	Tanqidiy fikrlash va ijodiy yondashuvni rivojlantiradi	Yuqori kognitiv yuk talab etadi
Sotsial	Hamkorlik va muloqot ko'nikmalarini rivojlantiradi	Guruh dinamikasini boshqarish murakkabligi
Pragmatik	Real hayot vaziyatlariga tayyorlaydi	Vaqt va resurs talab qiladi
Pedagogik	Talaba-markazli ta'limni ta'minlaydi	O'qituvchidan yuqori malaka talab etadi

Tadqiqot shuni ko'rsatadiki, faoliyatli yondashuvning eng katta afzalliklaridan biri uning integrativligi hisoblanadi. Bu yondashuv orqali nutqiy kompetensiyalarni rivojlantirish jarayonida kognitiv, emotsional va sotsial omillar bir-biri bilan uyg'unlashadi. Talabalar nafaqat til qoidalarini o'rganadilar, balki shu til vositasida real muammolarni hal qiladilar, ijodiy vazifalar bajaradilar va sotsial muloqotda ishtirok etadilar.

Biroq, faoliyatli yondashuvning cheklovlari ham mavjud.

Birinchi navbatda, bu yondashuvning amalga oshirilishi o'qituvchidan yuqori professional malaka talab etadi. O'qituvchi nafaqat til sohasida chuqur bilimga ega bo'lishi, balki faoliyatli yondashuvning metodologiyasini ham yaxshi bilishi kerak. Bundan tashqari, dars jarayonini boshqarish, talabalar faoliyatini yo'naltirish va baholash an'anaviy usullardan ancha murakkabdir.

Ikkinchidan, faoliyatli yondashuv ko'proq vaqt va resurs talab etadi. Real vaziyatlarni yaratish, kommunikativ vazifalarni tayyorlash, individual yondashuvni ta'minlash qo'shimcha tayyorgarlik va materiallar talab qiladi. Shuningdek, barcha talabalar faoliyatli yondashuvga bir xil darajada tayyor emas. Ba'zi talabalar passiv o'rganish uslubiga ko'proq moyil bo'lib, faol ishtirok etishdan qochishlari mumkin.



Uchinchidan, faoliyatli yondashuvning samaradorligini baholash masalasi ham murakkab hisoblanadi. An'anaviy test usullari bu yondashuvning barcha afzalliklarini aks ettira olmaydi. Nutqiy kompetensiyaning rivojlanish darajasini baholash uchun ko'p kriteriyali, dinamik baholash tizimi kerak bo'ladi.

Zamonaviy sharoitda faoliyatli yondashuvni qo'llashning yangi imkoniyatlari paydo bo'lmoqda. Raqamli texnologiyalar, virtual muhitlar, onlayn platformalar faoliyatli yondashuvni amalga oshirish uchun keng imkoniyatlar yaratmoqda. Masalan, virtual reallik texnologiyalari orqali real kommunikativ vaziyatlarni yaratish, onlayn loyihalar orqali hamkorlikni tashkil etish, multimedia vositalar yordamida ijodiy vazifalar berish mumkin.

Kelgusida faoliyatli yondashuvning rivojlanish yo'nalishlari quyidagicha belgilanishi mumkin: birinchidan, bu yondashuvni boshqa innovatsion pedagogik texnologiyalar bilan integratsiya qilish; ikkinchidan, raqamli vositalardan samarali foydalanish metodikasini ishlab chiqish; uchinchidan, faoliyatli yondashuvga asoslangan baholash tizimini takomillashtirish. Shuningdek, turli yoshdagi va turli darajadagi talabalar uchun faoliyatli yondashuv strategiyalarini differentsiatsiyalash zaruriyati ham mavjud.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Adabiyotlar tahlili va nazariy tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, faoliyatli yondashuv talabalar nutqiy kompetensiyalarini rivojlantirishda muhim metodologik asos bo'lib xizmat qiladi. Bu yondashuvning asosiy kuchi uning psixologik-pedagogik asoslanganligida va nutqiy faoliyatning tabiiy rivojlanish qonuniyatlariga muvofiqligida namoyon bo'ladi.

Faoliyatli yondashuvning nazariy asoslari L. S. Vygotskiy, A. N. Leontyev, P. Ya. Galperin kabi klassik psixologlarning ishlarida yaratilgan bo'lib, zamonaviy lingvodidaktikada muvaffaqiyatli qo'llanilmoqda. Bu yondashuvning asosiy tamoyillari – faollik, motivatsiya, kommunikativlik, shaxsiy yondashuv va ijodkorlik – nutqiy kompetensiyaning barcha komponentlarini bir vaqtda rivojlantirishga yordam beradi.

Tadqiqot natijalari shuni isbotladiki, faoliyatli yondashuv nafaqat til bilimini, balki kommunikativ ko'nikmalar, pragmatik kompetensiya va metakognitivlik darajasini ham sezilarli darajada oshiradi. Talabalar passiv qabul qiluvchi holatidan faol ishtirokchiga aylanib, nutqiy faoliyatning barcha turlarida mustaqillik rivojlantiradilar.

Biroq, faoliyatli yondashuvning muvaffaqiyatli amalga oshirilishi bir qator shartlarni talab etadi: o'qituvchilarning yuqori professional tayyorgarligi, etarli vaqt va resurs bilan ta'minlanganlik, moslashuvchan baholash tizimi va talabalarning individual xususiyatlarini hisobga olish. Shuningdek, bu yondashuvning ba'zi cheklavlari ham mavjud bo'lib, ularni hisobga olish zarur.

Kelajakda faoliyatli yondashuvning rivojlanish istiqbollari raqamli texnologiyalar bilan integratsiya, boshqa innovatsion metodlar bilan sintez va turli ta'lim kontekstlariga moslashtirishda ko'riladi. Ushbu yo'nalishda olib boriladigan tadqiqotlar nutq ta'limi sohasida yangi imkoniyatlar ochishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Выготский, Л. С. (1982). Мышление и речь. Москва: Педагогика.
2. Леонтьев, А. Н. (1975). Деятельность. Сознание. Личность. Москва: Политиздат.
3. Жуманова, Д. А. (2019). Фаолиятли ёндашув асосида талабаларнинг нутқий компетенцияларини ривожлантириш. Тошкент: Тафаккур.
4. Vygotsky, L. S. (1986). Thought and Language. Cambridge: MIT Press.
5. Leontiev, A. A. (1981). Psychology and the Language Learning Process. Oxford: Pergamon Press.
6. Гальперин, П. Я. (1985). Методы обучения и умственное развитие ребенка. Москва: МГУ.
7. Пассов, Е. И. (1989). Основы коммуникативной методики обучения иноязычному общению. Москва: Русский язык.
8. Зимняя, И. А. (2001). Лингвопсихология речевой деятельности. Москва: МПСИ.
9. Willis, J. (1996). A Framework for Task-Based Learning. London: Longman.
10. Костомаров, В. Г. & Митрофанова, О. Д. (1988). Методические принципы и приемы обучения русскому языку как иностранному. Москва: Русский язык.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. №9

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.